

**RAQAMLI BANK TIZIMINING RIVOJLANISHI VA
UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI****Xurramova Fotima Bahodir qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Bank ishi va audit yo'nalishi talabasi**Tel: +998936685251**E-mail: fotimaxurramova261@gmail.com*

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamli banklar moliya va bank tizimining ajralmas qismiga aylangan. Maqolada raqamli banklarning ta'rifi, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Raqamli banklar an'anaviy banklardan farqli o'laroq, texnologiyalarni keng qo'llab-quvvatlab, mijozlarga qulay va samarali xizmatlar taqdim etadi. Maqolada, shuningdek, raqamli banklarning rivojlanishi va bu boradagi yirik tadqiqotlar, shu jumladan global va mahalliy tahlillar, ko'rib chiqiladi. Raqamli banklarning asosiy afzalliklari sifatida operatsion xarajatlarning pastligi, xizmat tezligi va innovatsion mahsulotlarning joriy qilinishi ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, raqamli banklarning O'zbekistondagi istiqbollari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi haqida ham so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: raqamli banklar, mobil banking, internet banking, operatsion xarajatlar, FinTech, neo-banklar, bank xizmatlari.

Abstract: Today, digital banks have become an integral part of the finance and banking system. This article analyzes the definition, advantages, and disadvantages of digital banks. Unlike traditional banks, digital banks leverage new technologies to provide customers with convenient and efficient services. The article also discusses the global and local development processes of digital banks, with a focus on the prospects of digital banking in Uzbekistan and the state support for its growth. The main advantages of digital banks, such as lower operational costs, faster service delivery, and the introduction of innovative products and services, are emphasized. Additionally, the article highlights the increasing significance of digital banks and their role in creating new opportunities within the financial sector.

Keywords: digital banks, mobile banking, internet banking, operational costs, FinTech, neo-banks, banking services, digital transformation, financial technologies.

Аннотация: Сегодня цифровые банки стали неотъемлемой частью финансовой и банковской системы. В статье рассматриваются определение, преимущества и недостатки цифровых банков. В отличие от традиционных банков, цифровые банки используют новые технологии для предоставления удобных и эффективных услуг клиентам. Также в статье обсуждаются процессы развития цифровых банков на глобальном и локальном уровнях, с акцентом на перспективы цифрового банкинга в Узбекистане и государственную поддержку его роста. Основные преимущества цифровых банков, такие как снижение операционных затрат, более быстрая доставка услуг и внедрение инновационных продуктов, подчеркиваются в статье. В

статье также отмечается возрастающее значение цифровых банков и их роль в создании новых возможностей в финансовом секторе.

Ключевые слова: цифровые банки, мобильный банкинг, интернет-банкинг, операционные расходы, FinTech, нео-банки, банковские услуги, цифровая трансформация, финансовые технологии.

KIRISH

Bugungi kunda moliya va bank sohasidagi yangiliklar va o‘zgarishlar insoniyat tarixidagi eng muhim inqilobiy jarayonlardan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli banklar zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ular, an'anaviy bank tizimlaridan farqli o'laroq, texnologiyalardan foydalanish orqali bank xizmatlarini yanada qulay va samarali tarzda taqdim etishadi. Raqamli banklar o'zining innovatsion yondashuvlari bilan, ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonida iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Prezidentimiz bank tizimiga to'xtalar ekan, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha zamonaviy talablardan ortda qolmoqda", deya ta'kidlagan.[1] Asosiy masalalardan biri bu mijozlarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadiga raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi.


Raqamli banklar, asosan, an'anaviy bank xizmatlarini internet yoki mobil ilovalar orqali taqdim etadigan moliyaviy muassasalardir. Bunday banklar o'z mijozlariga raqamli platformalar orqali bank xizmatlarini, masalan, hisob raqamlarini boshqarish, pul o'tkazmalari, kreditlar, investitsiya imkoniyatlari va boshqa moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Raqamli banklar, odatda, an'anaviy banklarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, xarajatlarni minimallashtirish, xizmatlarni yanada kengaytirish va mijozlarga qulaylik yaratish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli banklar – bu an'anaviy bank xizmatlarini faqat raqamli platformalar orqali taqdim etadigan moliyaviy muassasalardir. Ular mijozlarga mobil ilovalar, veb-saytlar yoki onlayn tizimlar orqali bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Raqamli banklar an'anaviy banklarga qaraganda ko'proq innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashadi va xizmatlarni tez, samarali va arzonroq taqdim etishga imkon yaratadi. Bugungi kunda raqamli banklar nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan bozorlarda ham o'z o'rnini topmoqda. Ular bank xizmatlariga kirish imkoniyati cheklangan aholi qatlamlariga qulay va arzon yechimlar taklif etadi. Raqamli banklar, shuningdek, xususiy va tijorat banklarining raqobatini oshirib, moliya sohasida yangi yondashuvlar va mahsulotlarni ishlab chiqishga undaydi. Bundan tashqari, raqamli banklar sun'iy intellekt, blokcheyn, kriptovalyutalar kabi yangi texnologiyalarni faol joriy qilmoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarni yanada xavfsiz, tezkor va shaffof qiladi. Raqamli banklar, shuningdek, mijozlarni shaxsiylashtirilgan xizmatlar bilan ta'minlashga qodir bo'lib, bu sektordagi raqobatni yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday qilib, raqamli banklar bugungi kundagi moliya tizimida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan, kelajakda esa


yanada kengayib, butun moliya sohasini transformatsiya qilishga tayyor bo‘lgan muhim moliyaviy institutlardir. Ushbu maqolani tayyorlashda tegishli sohada faoliyat ko‘rsatgan olimlarning fikrlaridan foydalanildi. Kerakli xorijiy adabiyotlar, mahalliy qo‘lyozmalar va boshqa turli xil o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi. M. Avezov fikriga ko‘ra, “Raqamli bank-innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko‘rsatmasdan) masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank yoki uning sho‘ba korxonasi hisoblanadi”. [2] K. Mirzayev, F. Shodiyev va S. Qurvonboyevlarning fikricha, Raqamli bank- bu elektron aylanma modelidan foydalangan holda ishlaydigan filialsiz bank. Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo‘lib, call-markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo‘yilgan poydevorga qoshimch xolos. [3]

Raqamli bank – bu an‘anaviy banklarga o‘xshash xizmatlar ko‘rsatuvchi, lekin o‘zining barcha operatsiyalarini onlayn platformalarda amalga oshiradigan moliya muassasasi. Raqamli banklar, fiziki filiallarga ega bo‘lmasdan, faqat internet orqali ishlaydi, foydalanuvchilarga mobil ilovalar va veb-saytlar orqali xizmat ko‘rsatadi. Quyida raqamli banklarning afzalliklari haqida grafik tasvirlangan:



an'anaviy banklarga o'xshash xizmatlar ko'rsatuvchi, lekin o'zining barcha operatsiyalarini onlayn platformalarda amalga oshiradigan moliya muassasasi. Raqamli banklar, fiziki filiallarga ega bo'lmasdan, faqat internet orqali ishlaydi, foydalanuvchilarga mobil ilovalar va veb-saytlar orqali xizmat ko'rsatadi. Quyida raqamli banklarning afzalliklari haqida grafik tasvirlangan:

Raqamli banklarning afzalliklari bolgani singari ularning kamchiliklari ham mavjud:



2-rasm: Raqamli bank xizmatlarining kamchiliklari. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli banklar juda ko'p afzalliklarga ega bo'lsa-da, ular ba'zi kamchiliklarga ham ega. Texnik xatoliklar, xavfsizlik muammolari, fizika bank xizmatlarining yetishmasligi va murakkab interfeyslar kabi cheklovlar ba'zi foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, raqamli banklardan foydalanishda ehtiyotkorlik va xavfsizlikni ta'minlash muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Izlanishlar davomida ilmiy maqolalar, hisobotlar, bank sektori tahlillari va ekspert xulosalari o'rganib chiqildi. Asosiy e'tibor 2019-2024 yillardagi ma'lumotlarga qaratildi. Deloitte ning "Digital Banking Maturity 2023" hisobotiga ko'ra, raqamli banklar bozori har yili o'rtacha 20-25% o'sish sur'atini ko'rsatmoqda [4]. Skinner o'z tadqiqotida raqamli banklarning afzalligini tahlil qilib, ularning asosiy ustunligi - operatsion xarajatlarning pastligi va mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligida ekanligini ta'kidlaydi [5]. O'zbekistonda raqamli banklarning rivojlanishi bo'yicha Abdullayev tomonidan o'tkazilgan tadqiqot mahalliy bozorda neo-banklarning istiqbolli

ekanligini ko'rsatadi [6]. Rossiyalik olimlar Ivanov va Petrova raqamli banklarning rivojlanishida regulyator siyosatining ahamiyatini ta'kidlashadi [7]. Adabiyotlar tahlili asosida raqamli banklarning rivojlanishi va ularning bank sohasiga ta'siri bo'yicha bir nechta muhim natijalar aniqlandi. Bugungi rivojlanayotgan kunda raqamli banklar global moliya bozorining tez rivojlanayotgan segmentiga aylanib ulgurgan. Raqamli banklarning an'anaviy banklardan asosiy farqlaridan biri ularning operatsion xarajatlari sezilarli darajada pastligidir. Deloitte ma'lumotlariga ko'ra, raqamli banklarning operatsion xarajatlari an'anaviy banklarga nisbatan 60-70% ga kam. Bu esa ularga raqobatbardosh narxlarni taklif etish va yuqori rentabellikka erishish imkonini beradi [4]. Xarajatlarning pastligi asosan filiallar tarmog'ining yo'qligi va jarayonlarning to'liq avtomatlashtirilgani bilan bog'liq. Raqamli banklarning yana bir muhim ustunligi -xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligidir. An'anaviy banklarda mijozlar o'rtacha 15-20 daqiqa navbat kutishlari kerak bo'lsa, raqamli banklarda xizmatlar deyarli zudlik bilan ko'rsatiladi. McKinsey tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli banklarda bir operatsiyani bajarish uchun ketadigan vaqt an'anaviy banklarga nisbatan 5 barobar kam [8]. Innovatsion mahsulot va xizmatlarni joriy etish tezligi ham raqamli banklarning muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi. Skinner ta'kidlaganidek, raqamli banklar yangi mahsulotlarni bozorga 3-4 oy ichida chiqara oladi, an'anaviy banklarda esa bu jarayon 1-2 yilgacha cho'zilishi mumkin [5]. Bu raqamli banklarga bozor talablariga tezroq moslashish va yangi mijozlarni jalb qilish imkonini beradi. Mahalliy bozorda raqamli banklarning rivojlanishi bo'yicha Abdullayev tomonidan o'tkazilgan tadqiqot O'zbekistonda neo-banklar bozori hali shakllanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi [6]. Biroq yosh avlod vakillarining raqamli xizmatlarga bo'lgan talabi yuqoriligi va davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlanishi bu yo'nalishning istiqbolli ekanligidan dalolat beradi. So'nggi yillarda raqamli banklar va moliya texnologiyalari (FinTech) sohasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Masalan, 2023-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 46,2 million donaga yetib, 2022-yilga nisbatan 35 foizga oshgan.[9] Shuningdek, "Ipak Yo'li" banki 2021-yilning birinchi yarmida bozor ulushi 2,03 foizni tashkil etgan.

Ekspertlar bashoratlariga ko'ra, 2025 yilga kelib global bank operatsiyalarining 75% i raqamli kanallar orqali amalga oshirilishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashning to'llari sifatida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Yuqori darajada qulaylik va xavsizlikni ta'minlash;
- Bank xizmatlarining mijozlarga moslashuvchanligini ta'minlash;
- Bank mijozlarga shunchaki xizmat ko'rsatish emas, ularning biznes hamkoriga aylanish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli banklarning ko'plab joylarda filiallari ochilishi va xorijiy bank filiallari kirib kelishi bu davlatimiz aholisi hamda iqtisodiyoti uchun ham yaxshi albatta. Chet el banklari ochilishi va joylarda raqamli bank filiallari ko'payishi o'z o'rnida

banklar o‘rtasida raqobat kuchayadi va iqtisodimiz rivojlanishi bilan birga bank xizmatlarining foizlari kamayishi aholi uchun ham qulaylik yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar
2. Mirzobek Komiljonovich Avezov RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA UNING AFZALLIKLARI // Scientific progress. 2022. №2.
3. Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Shodiyev Fazliddin Qalandar O‘g‘li, Qurvonboyeva Sevinch Asliddinovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI // JMBM. 2024. №4.
4. Deloitte. (2023). Digital Banking Maturity 2023
5. SkinnerC. (2022). Digital Bank: Strategies for Launching or Becoming a Digital BankWiley Finance
6. AbdullayevM. (2023). O'zbekistonda raqamli banklarning rivojlanish istiqbollari. Moliya va bank ishi jurnali, 15(3), 45-58
7. Иванова.В., Петрова, С.М. (2023). Регулирование цифровых банков: международный опыт. Финансы и кредит, 29(4), 89-102.
8. McKinsey & Company. (2023). Global Banking Annual Review 2023
9. Raxmatov, T. (2024). BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(6), 149–157.